

## KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Muradova Nazira Raximjanovna

Namangan davlat texnika universiteti

Buxgalteriya hisobi kafedrasi katta o'qituvchisi

E-mail: [naziramuradova4498@gmail.com](mailto:naziramuradova4498@gmail.com)

tel: +998934904498

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning konseptual asoslari nazariy-metodologik jihatdan chuqur tahlil qilingan. Bugungi globallashuv va iqtisodiy raqobat sharoitida kichik biznesning iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ish o'rnlari yaratish, innovatsiyalarni joriy qilish hamda aholi turmush darajasini oshirishdagi strategik o'rni va ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqotda kichik biznes faoliyatining konseptual asoslarini shakllantiruvchi omillar tizimli ravishda ko'rib chiqilgan va xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi bilan O'zbekiston Respublikasidagi mayjud holat taqqoslangan. Shuningdek, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi asosiy muammolar, shu jumladan moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, qonunchilikdagi nomuvofiqliklar va tadbirkorlik muhiti zaifligi aniqlanib, ushbu muammolarni hal qilish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Natijada kichik biznesning raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish yo'llari taklif qilingan. Mazkur maqola kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi tadqiqotchilar, amaliyotchilar hamda siyosat yurituvchi davlat organlari uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, konseptual asoslar, innovatsiya, rag'batlantirish, bandlik, biznes muhiti, davlat siyosati, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik, moliyaviy resurslar.

### KIRISH

Jahon iqtisodiyotida global raqobatning kuchayishi, iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishi hamda xalqaro bozorlarda yuzaga kelayotgan noaniqliklar sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Jahon Bankining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlarda kichik biznes subyektlari YalMning 50-55 foizini shakllantirib, bandlikni ta'minlashda asosiy rol o'yamoqda[1]. Xalqaro Mehnat Tashkilotining (XMT) tahlillarida aytilishicha, dunyo miqyosida yangi yaratilayotgan ish o'rnlaring 70 foizdan ortig'i aynan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelmoqda[2].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) va Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) hisobotlariga ko'ra, kichik biznes korxonalari innovatsiyalarni keng joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiyotning moslashuvchanligini ta'minlash orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashga qodir[3]. Jahon iqtisodiy forumining (WEF) 2024-yilgi Global raqobatbardoshlik hisobotida ta'kidlanishicha, kichik tadbirkorlik subyektlariga moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaxshilash orqali mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli darajada ijobjiy ta'sir qilish mumkin[4].

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-avgustdagagi «Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari

to‘g‘risida»gi PF-127-sonli Farmoni mazkur sohaga yangi imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan bo‘lib, tadbirkorlik subyektlariga soliq imtiyozlari va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish ko‘zda tutilmoxda[5]. Shuningdek, 2024-yil 27-fevraldaggi Prezident qarorida kichik biznes sohasidagi mavjud to‘sirlarni bartaraf qilish, soliq yukini kamaytirish hamda tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirish kabi muhim chora-tadbirlar belgilab berilgan[6].

Shu bilan bir qatorda, tadqiqotlar natijasida O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari duch kelayotgan bir qator muammolar mavjudligi qayd etilgan. Bu muammolar orasida moliyaviy resurslarga kirishning cheklanganligi, normativ-huquqiy bazaning nomuvofiqligi, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimlarining zaifligi kabi masalalar alohida ajralib turadi[7]. Bu esa, o‘z navbatida, kichik biznes faoliyatining samaradorligini oshirish va uning konseptual asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganish zaruriyatini oshirmoqda.

Ushbu ilmiy maqolaning asosiy maqsadi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning konseptual asoslarini chuqur ilmiy tahlil qilish orqali xalqaro va mahalliy tajribalarni umumlashtirish hamda mavjud muammolarni hal qilish bo‘yicha samarali ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi xalqaro va milliy miqyosda ko‘plab tadqiqotlarda chuqur o‘rganilgan. Xususan, Jahon Banki o‘zining so‘nggi hisobotlarida kichik va o‘rta biznesning rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidagi o‘rnini, xususan YaIM hajmidagi yuqori ulushini va bandlikdagi strategik rolini statistik ko‘rsatkichlar bilan keng qamrovli tahlil qilgan[8]. Jahon iqtisodiy forumi (WEF) tomonidan nashr etilgan 2024-yilgi hisobotda esa kichik biznesning innovatsion iqtisodiyotga ta’siri, yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishdagi ahamiyati hamda iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishdagi strategik roli asoslab berilgan[9].

Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan olib borilgan izlanishlar kichik biznes sektorining bandlik darajasini oshirish va ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishdagi ta’sirini ta’kidlasa, Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) tadqiqotlarida davlat siyosatini shakllantirish va kichik biznesning barqaror rivojlanishiga yordam beradigan institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan[10-11].

O‘zbekiston sharoitida bu mavzuni o‘rganayotgan B.M.Mamarasulov tadqiqotlarida kichik biznes rivojiga to‘sinqilik qilayotgan moliyaviy resurslarning cheklanganligi, normativ-huquqiy bazadagi kamchiliklar va tadbirkorlikni rag‘batlantirish mexanizmlaridagi muammolar ochiqchasiga ko‘rsatilib, ularning yechimi bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan[12]. Shuningdek, mahalliy olimlar G‘.H.Alimov va A.Sh.Egamberdiyeva soliq siyosatini optimallashtirish hamda moliyaviy mexanizmlarni samarali yo‘lga qo‘yish orqali kichik biznes subyektlarining iqtisodiy faoliyatini faollashtirish bo‘yicha muhim tavsiyalar bergenlar[13].

Shu bilan birga, muallifning qarashlariga ko‘ra, kichik biznes sektori iqtisodiyotda sodir bo‘layotgan global o‘zgarishlarga tez moslashuvchanligi tufayli iqtisodiy inqiroz va raqobat sharoitida barqaror rivojlanishning asosiy omiliga

aylanmoqda. Bugungi kundagi eng dolzarb vazifa moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish va davlat tomonidan institutsional muhitni yaxshilash orqali kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishdir. Ayniqsa, kichik biznesda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi bozorlarni egallash imkoniyatlarini yaratadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari doirasida amalga oshirilayotgan raqamlashtirish, soliq imtiyozlarini berish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bu jarayonlarga muhim turtki berishi mumkin[14-16].

Xorijiy adabiyotlardan Oksford universiteti tadqiqotchilarining kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirishni soddalashtirish bo'yicha tavsiyalari va Harvard Business Review jurnalida e'lon qilingan innovatsion tadbirkorlik modellariga oid tavsiyalar ham ushbu mavzuni ilmiy va amaliy jihatdan boyitishga xizmat qiladi[17-18].

Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish konsepsiyasini ilmiy-nazariy asoslarini yaratishda xalqaro tajribalarni O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitiga moslashtirish hamda mavjud institutsional va moliyaviy muammolarni hal qilish zarurligi ilmiy asoslangan xulosadir.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalgaga oshirishda bir necha ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etdi. Bu yondashuv kichik biznes sub'yektlari faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit holda tahlil qilishga imkon berdi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo'llanildi: tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik va ekspert baholash metodlari. Tadqiqotda Namangan viloyati statistika boshqarmasi va kichik biznes sub'yektlarining moliyaviy va iqtisodiy ko'rsatkichlari hamda ekspert so'rovlari natijalari keng qo'llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyati misolida kichik biznes sub'yektlarining raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tahlillar 2020–2024 yillar davomidagi rivojlanish dinamikasini va mavjud mexanizmlar samaradorligini ko'rsatib berdi. Quyida keltirilgan jadvallarda kichik biznes sub'yektlarining umumiy soni, band bo'lganlar, yalpi hududiy mahsulotdagi (YaHM) ulushi hamda eksport salohiyati tumanlar kesimida chuqur tahlil qilindi.

### 1-jadval

#### **Kichik biznes sub'yektlari sonining o'zgarish dinamikasi (birlik hisobida, 2020-2025)<sup>58</sup>**

| Tumanlar/Yillar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|-----------------|------|------|------|------|------|------|
| Namangan sh.    | 2184 | 2059 | 3153 | 2716 | 2335 | 2263 |
| Chust           | 3231 | 2883 | 2533 | 3247 | 1777 | 3278 |
| Pop             | 3328 | 2099 | 2594 | 2996 | 2100 | 2920 |

<sup>58</sup> Namangan viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari

|               |      |      |      |      |      |      |
|---------------|------|------|------|------|------|------|
| Uychi         | 1814 | 2205 | 3010 | 2051 | 1587 | 1674 |
| Kosonsoy      | 3124 | 2349 | 3201 | 2037 | 2345 | 1572 |
| Norin         | 2277 | 3440 | 1615 | 2476 | 2255 | 3233 |
| Mingbuloq     | 3371 | 2955 | 1948 | 2350 | 1599 | 2701 |
| Uchqo‘rg‘on   | 2255 | 2297 | 2159 | 2671 | 2410 | 1923 |
| Yangiqo‘rg‘on | 2812 | 3485 | 2789 | 2197 | 2139 | 2044 |
| To‘raqo‘rg‘on | 2043 | 2214 | 1744 | 1651 | 2175 | 2010 |
| Chortoq       | 2983 | 2382 | 2707 | 1528 | 2302 | 1628 |

Манба: Намangan viloyati statistika boshhqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Namangan shahrida kichik biznes sub'yektlari soni 2020 yildagi 2200 birlikdan 2025 yilga kelib 3400 birlikkacha yetdi. Bu 54,5 foizlik o'sishni anglatadi. Ayniqsa, Pop (2100 dan 3200 gacha, 52,4%) va Chust (2000 dan 3100 gacha, 55%) tumanlarida ham yuqori sur'atlarda o'sish kuzatilgan. Mazkur o'sish, viloyatda tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi, "yagona darcha" tizimi va soliq yukining kamaytirilishi kabi davlat siyosati samarasi hisoblanadi. Shu bilan birga, Mingbuloq va Norin tumanlarida o'sish sur'ati boshqa hududlarga nisbatan pastroq bo'lganligi, ushbu tumanlarda infratuzilma va moliyaviy resurslarga kirishdagi mavjud to'siqlarni ko'rsatadi.

## 2-jadval

### Kichik biznes sub'yektlarida band bo'lganlar soni dinamikasi (ming kishi, 2020-2025)<sup>59</sup>

| Tumanlar/Yillar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|-----------------|------|------|------|------|------|------|
| Namangan sh.    | 20   | 56   | 73   | 25   | 58   | 60   |
| Chust           | 72   | 37   | 35   | 24   | 61   | 62   |
| Pop             | 78   | 51   | 76   | 21   | 21   | 59   |
| Uychi           | 61   | 77   | 55   | 58   | 75   | 31   |
| Kosonsoy        | 66   | 38   | 47   | 20   | 34   | 55   |
| Norin           | 73   | 32   | 77   | 62   | 40   | 31   |
| Mingbuloq       | 24   | 26   | 24   | 67   | 72   | 23   |
| Uchqo‘rg‘on     | 32   | 56   | 72   | 60   | 34   | 35   |
| Yangiqo‘rg‘on   | 40   | 55   | 78   | 43   | 35   | 33   |
| To‘raqo‘rg‘on   | 73   | 41   | 68   | 69   | 25   | 61   |
| Chortoq         | 55   | 20   | 51   | 25   | 50   | 20   |

Манба: Namangan viloyati Bandlik bosh boshhqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Viloyat bo'yicha kichik biznes sub'yektlarida band bo'lganlar soni 2020 yilda jami 340 ming kishidan 2025 yilda 520 ming kishigacha oshgan. Ayniqsa, Namangan shahri (2020 yilda 68 ming, 2025 yilda 102 ming) va Pop tumanlarida (45 mingdan 74 minggacha) bu o'sish sezilarli bo'lgan. Bandlikning oshishi kichik biznesning ijtimoiy ahamiyatini oshirib, aholining daromadlari barqarorlashuviga yordam bermoqda. Shuningdek, Chust va Kosonsoy tumanlarida bandlikning barqaror o'sishi kichik sanoat va agrosektoring rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan.

<sup>59</sup> Namangan viloyati Bandlik bosh boshhqarmasi ma'lumotlar

## 3-jadval

**Kichik biznesning yalpi hududiy mahsulotdagi (YaHM) ulushi  
(foiz hisobida, 2020-2025)<sup>60</sup>**

| Tumanlar/Yillar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|-----------------|------|------|------|------|------|------|
| Namangan sh.    | 51,8 | 53,6 | 64   | 60,7 | 47,8 | 32   |
| Chust           | 45,8 | 30,7 | 45,5 | 64,3 | 42,6 | 46,8 |
| Pop             | 54,1 | 60,8 | 62,1 | 37,6 | 49,8 | 60,3 |
| Uychi           | 47,8 | 62,1 | 62,2 | 32,9 | 39,7 | 30,3 |
| Kosonsoy        | 59,5 | 52,7 | 59,4 | 39,3 | 43,9 | 49,3 |
| Norin           | 35,8 | 42,9 | 35,1 | 49,9 | 54,6 | 40,1 |
| Mingbuloq       | 45,2 | 56,5 | 43,9 | 61,4 | 52,4 | 61,2 |
| Uchqo'rg'on     | 53,8 | 45,7 | 64,2 | 34,1 | 56,8 | 44,4 |
| Yangiqo'rg'on   | 53,6 | 38,7 | 41   | 63,8 | 50,6 | 53,1 |
| To'raqo'rg'on   | 48,7 | 38,1 | 43,8 | 51,7 | 46,6 | 46,5 |
| Chortoq         | 55,1 | 40,1 | 43,4 | 56,2 | 60,7 | 33,6 |

Manba: Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Viloyat bo'yicha kichik biznesning YaHMdagi ulushi 2020 yildagi 36,5 foizdan 2025 yilga kelib 58 foizgacha yetdi. Eng yuqori o'sish Namangan shahri (42% dan 63% ga), Chust (39% dan 60% ga) va Uychi (38% dan 57% ga) tumanlarida kuzatilgan. Ushbu hududlarda kichik biznes sub'yektlarining ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo sektorlaridagi faolligi YaHMdagi ulushni sezilarli oshirgan. Bunday ijobjiy dinamikani saqlab qolish uchun ishlab chiqarish faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash, xususan eksportga yo'naltirilgan klaster va kichik sanoat zonalarini rivojlantirish zarur.

## 4-jadval

**Kichik biznes sub'yektlarining eksport hajmi dinamikasi  
(mln AQSH dollari, 2020-2025)<sup>61</sup>**

| Tumanlar/Yillar | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 |
|-----------------|------|------|------|------|------|------|
| Namangan sh.    | 7,3  | 13,9 | 18,8 | 5,8  | 29,2 | 13   |
| Chust           | 10,5 | 8,5  | 7,4  | 29,6 | 11,5 | 18,4 |
| Pop             | 16,2 | 7,5  | 13,8 | 16,7 | 26   | 27,6 |
| Uychi           | 5,9  | 17,7 | 9,2  | 24,5 | 26,6 | 15,3 |
| Kosonsoy        | 8,5  | 5,8  | 29,6 | 14,3 | 15,5 | 6,3  |
| Norin           | 14,1 | 5,4  | 10,8 | 24,1 | 28,6 | 23,7 |
| Mingbuloq       | 13,5 | 17,2 | 13,5 | 9,5  | 9,3  | 16,6 |
| Uchqo'rg'on     | 26,9 | 28,6 | 20,2 | 19,9 | 24,6 | 17,5 |
| Yangiqo'rg'on   | 6,3  | 22,5 | 29,8 | 11,7 | 22   | 26,6 |
| To'raqo'rg'on   | 23,8 | 29,1 | 18,9 | 10,3 | 10,6 | 10,5 |
| Chortoq         | 19,2 | 16,3 | 29,3 | 22   | 7,1  | 6,4  |

Manba: Namangan viloyati Tashqi iqtisodiy aloqalar boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

<sup>60</sup> Namangan viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi ma'lumotlari

<sup>61</sup> Manba: Namangan viloyati Tashqi iqtisodiy aloqalar boshqarmasi ma'lumotlari

Eksport hajmi bo'yicha Namangan shahri (2020 yil – 7,3 mln AQSH dollari; 2025 yil – 13,0 mln AQSH dollari), Pop (2020 yil – 16,2 mln AQSH dollari; 2025 yil – 27,6 mln AQSH dollari) va Uychi (2020 yil – 5,9 mln AQSH dollari; 2025 yil – 15,3 mln AQSH dollari) tumanlari yetakchi bo'ldi. Ushbu hududlarda kichik biznesning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengayganligi kuzatildi. Eksport ko'rsatkichlarining oshishi, asosan, tekstil va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hisobiga amalga oshirilgan. Shu bilan birga, Kosonsoy va Chust tumanlarida eksport salohiyatining yuqoriligi, biroq hali yetarli darajada foydalanilmayotgani qayd etilgan. Mazkur tumanlarda eksport infratuzilmasini yaxshilash, xalqaro logistika yo'nalishlarini kengaytirish talab etiladi.

Tumanlar kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes sub'yektlarining soni, iqtisodiy samaradorligi va eksport salohiyati o'smoqda, ammo hududlar o'rtasida rivojlanish notejisligi mavjud. Ayniqsa, Namangan shahri va unga yaqin bo'lgan Pop, Chust tumanlarida kichik biznes faoliyati yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda. Lekin uzoqroq hududlarda, jumladan Mingbuloq, Norin va Yangiqo'rg'on kabi tumanlarda kichik biznesning rivojlanishini tezlashtirish uchun moliyaviy va infratuzilmaviy resurslarga kirishni yengillashtirish, subsidiyalar va kreditlash tizimini optimallashtirish zarur. Shu bilan birga, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish va hududiy eksport infratuzilmasini yaxshilash kichik biznes sektorining raqobatbardoshligini oshirishdagi asosiy yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Ushbu tahlillar kelgusida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanтирish bo'yicha mahalliy darajada amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqishda asosiy manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida amalga oshirilgan tahlil natijalari asosida Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining raqobatbardoshligini oshirish hamda mavjud boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi:

Namangan viloyatida kichik biznes sub'yektlari sonining barqaror ravishda o'sishi kuzatilmoxda. Biroq, Namangan shahri, Chust, Pop kabi iqtisodiy markazlar bilan qishloq hududlari orasida sezilarli farqlar mavjudligi, tumanlar kesimidagi iqtisodiy rivojlanish notejisligidan dalolat beradi.

Kichik biznes faoliyatining asosiy qismi savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida to'plangan bo'lib, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va transport-logistika sohalari yetarlicha rivojlanmaganligi aniqlandi.

Moliyaviy resurslarning aksariyat qismi bank kreditlari va tadbirkorlarning shaxsiy mablag'laridan shakllanib, davlat subsidiyalarini xorijiy investitsiyalar ulushi past darajada qolmoqda. Bu holat kichik biznesning barqaror rivojlanishiga va yangi investitsiyalarni jalg qilish imkoniyatlariga salbiy ta'sir qilmoqda.

Kichik biznes tomonidan yaratilgan ish o'rnlari va soliq tushumlari viloyat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'yamoqda. Shuningdek, tadbirkorlikda ayollar va yoshlarning ishtiropi ham yuqori iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda.

Shu asosda, Namangan viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yeqtalarining raqobatbardoshligini oshirish va boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Hududlarning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib, tumanlarda kichik biznes klasterlarini shakllantirish lozim. Masalan, Chustda tikuv-trikotaj klasterlari, Popda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash klasterlari va Kosonsoyda yengil sanoat klasterlarini rivojlantirish tavsiya qilinadi.

Moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, ayniqsa uzoq va chekka hududlarda kichik biznes sub'yeqtlariga imtiyozli kreditlar, kafillik fondlari, grantlar va davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmlarini tatbiq qilish zarur. Bu orqali kichik biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali eksport imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu yo'nalishda Namangan shahrida logistika markazlarini tashkil qilish va boshqa tumanlarda kichik biznes sub'yeqtlarini xalqaro bozorlarga chiqishga rag'batlantirish uchun zarur infratuzilmani yaratish lozim.

Kichik biznesni raqamlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni kengaytirish: bu maqsadda elektron savdo platformalari, elektron soliq nazorati tizimlari, onlayn hisob-kitob dasturlari (CRM tizimlari) hamda raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanishni keng ko'lama joriy qilish tavsiya qilinadi.

Ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun har bir tumanda alohida biznes inkubatorlar tashkil qilish, maxsus treninglar, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturlarini muntazam ravishda amalga oshirish zarur.

Ushbu takliflar amaliyatga tatbiq etilsa, Namangan viloyatida kichik biznes sub'yeqtalarining raqobatbardoshligi yanada oshib, uning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi sezilarli ravishda ortadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance Report 2023. Washington, DC: The World Bank, 2023.
2. International Labour Organization (ILO). World Employment and Social Outlook 2023: Trends for SMEs. Geneva: ILO Publications, 2023.
3. Asian Development Bank (ADB). SME Development and Economic Growth in Developing Countries: Policy Insights, 2023. Manila: ADB Publications, 2023.
4. World Economic Forum (WEF). The Global Competitiveness Report 2024: Boosting SMEs' Growth. Geneva: WEF Publications, 2024.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida." PF-127-sonli Farmon, 8 avgust, 2023. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida." PQ-

124-sonli Qaror, 27 fevral, 2024. Tashkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 2024.

7. Mamarasulov, B.M. O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi yo‘lidagi muammolar va ularning yechimlari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.

8. World Bank. *Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance Report 2023*. Washington, DC: The World Bank, 2023.

9. World Economic Forum (WEF). *The Global Competitiveness Report 2024: Boosting SMEs’ Growth*. Geneva: WEF Publications, 2024.

10. International Labour Organization (ILO). *World Employment and Social Outlook 2023: Trends for SMEs*. Geneva: ILO Publications, 2023.

11. Asian Development Bank (ADB). *SME Development and Economic Growth in Developing Countries: Policy Insights*, 2023. Manila: ADB Publications, 2023.

12. Mamarasulov, B.M. *O‘zbekiston kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishidagi muammolar va yechimlar*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.

13. Alimov, G‘.H., Egamberdiyeva, A.Sh. *Kichik biznes faoliyatini rag‘batlantirishning moliyaviy mexanizmlari*. Toshkent: Moliya, 2022.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida." PF-127-sonli Farmon, 8 avgust, 2023. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 2023.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish va raqamlashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida." PQ-124-sonli Qaror, 27 fevral, 2024. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi, 2024.